

ARAB VA O'ZBEK TILLARIDA MORFOLOGIK TIZIM: FE'L VA OTLARNING SHAKLLANISHI

Nuriddinova Chexroza Shuxrat qizi,

Alfraganus universiteti, filologiya fakulteti 1-kurs talabasi,

Ilmiy rahbar: **Baxtiyarova Fotimaxon Sodiqovna,**

Alfraganus universiteti, f.f.n.(PhD).

Annotatsiya: Mazkur maqolamda arab va o'zbek tillarining morfologik tuzilishi, xususan fe'l va ot so'z turkumlarining shakllanishi, grammatik kategoriyalari va yasalish usullari qiyosiy tahlil qilinadi. Ikkala tilning morfologik tizimidagi o'xshashlik va tafovutlar misollar bilan ochib beriladi. Tadqiqotlarda ham shuni ko'rishimiz mumkinki, ikki til orasidagi grammatik tafakkur farqini tushunishga yordam beradi. Arab tilining ildiz-vazn (formulaviy) tizimi va o'zbek tilining qo'shimchalar (affiksatsiya) asosidagi yasalish tizimi o'rtasidagi farqlar misollar asosida ochib beriladi. Har ikki tilning fe'l va otlarda son, shaxs, zamon, jins, ko'plik, egalik kabi grammatik kategoriyalardagi o'xshashlik va tafovutlar o'rganiladi. Tadqiqot natijalari ikki tilda morfologik tuzilishning mantiqiy asoslari va lingvistik tafakkur shakllanishidagi farqlarni ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: arab tili, o'zbek tili, morfologik tizim, fe'l shakllanishi, ot shakllanishi, ildiz-vazn, qo'shimcha, grammatik kategoriya, qiyosiy tahlil

Аннотация: В данной статье дается сопоставительный анализ морфологической структуры арабского и узбекского языков, в частности образования категорий глаголов и существительных, грамматических категорий и способов образования. Сходства и различия в морфологической системе двух языков выявляются на примерах. Исследования также показывают; Мы видим, что грамматическое отражение между двумя языками помогает понять разницу. На примерах объясняются различия между корневым (формульным) системой арабского языка и системой формирования узбекского языка на основе суффиксов (аффиксации). В глаголах и существительных обоих языков изучаются сходства и различия в грамматических категориях, таких как число, лицо, время, род, множественное число, притяжательный падеж. Результаты исследования показывают различия в логических основах морфологической структуры и формировании языкового мышления на двух языках.

Ключевые слова: арабский язык, узбекский язык, морфологическая система, глаголообразование, существительное, корневой вес, суффикс, грамматическая категория, сопоставительный анализ.

Annotation: In this article, the morphological structure of Arabic and Uzbek languages, in particular the formation of verb and noun categories, grammatical categories and methods of formation is given a comparative analysis. Similarities and differences in the morphological system of the two languages are revealed by examples. The studies also show; We can see that grammatical reflection between the two languages helps to understand the difference. The differences between the root-weight (formulaic) system of the Arabic language and the system of formation of the Uzbek language based on suffixes (affixation) are explained on the basis of examples. In verbs and nouns of both languages, similarities and differences in grammatical categories such as number, person, tense, gender, plural, possessive are studied. The results of the study show differences in the logical foundations of morphological structure and the formation of linguistic thinking in two languages.

Keywords: Arabic language, Uzbek language, morphological system, verb formation, noun formation, root-weight, suffix, grammatical category, comparative analysis.

KIRISH. Arab va o‘zbek tillari turli til oilalariga mansub bo‘lsa-da, grammatik qurilish nuqtai nazaridan ularni qiyoslash orqali ko‘plab ilmiy natijalarga erishish mumkin. Xususan, morfologiya — ya’ni so‘zlarning shakllanishi va yasaliş tizimi bu tillarda sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu maqolada aynan fe’l va ot so‘z turkumlari qanday yasaliş, qanday grammatik shakllarga ega ekani solishtirilib, tilshunoslik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Har bir tilning grammatik tuziliş, ayniqsa morfologik tizimi, uning milliy tafakkur, tarixiy taraqqiyot va tipologik xususiyatlarini aks ettiradi. Arab va o‘zbek tillari turli til oilalariga mansub bo‘lishiga qaramay, ularning morfologik tizimlarini solishtirish orqali qiziqarli va chuqur lingvistik xulosalarga kelish mumkin.

Arab tili semit tillar oilasiga mansub bo‘lib, so‘z yasaliş asosan ildiz-vazn (formulaviy) tizimi asosida amalga oshadi. O‘zbek tili esa turkiy tillar oilasiga kiradi va unda so‘z yasaliş, shakllanishi qo‘shimchalar orqali sodir bo‘ladi. Har ikkala tilning morfologik tizimida fe’l va ot so‘z turkumlari alohida o‘rin egallab, grammatik kategoriyalar (zamon, shaxs, son, jins, nisbat, egalik va h.k.) orqali ifodalanadi. Ushbu maqolada arab va o‘zbek tillaridagi fe’l va otlarning shakllanish usullari, grammatik ko‘rinishlari va yasaliş tizimi qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bu ikki tilning morfologik farqlarini o‘rganish o‘zbek tilshunosligi va tarjimashunosligi uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

METODOLOGIYASI. Ushbu maqolani yozishda qiyosiy-lisoniy tahlil asosiy uslub sifatida qo‘llanildi. Arab va o‘zbek tillarining morfologik tizimi, xususan fe’l va otlarning shakllanish usullari, grammatik shakllari va yasaliş mexanizmlari solishtirildi. So‘zlarning tuziliş, ularning grammatik kategoriyalardagi ko‘rinishlari

(zamon, shaxs, son, jins, nisbat, egalik va h.k.) deskriptiv (ta'riflovchi) va analitik usullar bilan o'rganildi. Tahlilda arab tilining ildiz-vazn asosidagi morfologik tizimi bilan o'zbek tilining affiksatsiyaga asoslangan morfologik tizimi o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlar aniq misollar orqali ko'rsatildi. Ilmiy adabiyotlar, grammatika qo'llanmalari va amaliy tahlil materiallari asos qilib olindi. Tadqiqotda zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari, xususan strukturaviy va tipologik lingvistika tamoyillariga tayangan holda grammatik birliklar o'rganildi va umumlashtirildi.

MUHOKAMA VA NATIJA. Arab va o'zbek tillarining morfologik tizimini qiyosiy tahlil qilish ularning grammatik tuzilishdagi farq va o'xshashliklarini aniqlash imkonini beradi. Tahlil natijalariga ko'ra, arab tilida so'zlar, xususan fe'l va otlar, asosan ildiz va vazn asosida shakllanadi. Bu tizimda bitta ildiz turli vaznlar (formulalar) orqali grammatik va leksik jihatdan yangi ma'no kasb etadi. Shu sababli arab tili morfologiyasi ichki fleksiyaga tayanadi va shakl o'zgarishlari ildiz ichida sodir bo'ladi. O'zbek tilida esa so'zlar, ayniqsa fe'l va otlar, affikslar yordamida yasalanadi va ularning grammatik shakllari qo'shimchalar bilan hosil qilinadi. Bu esa o'zbek tilining tashqi fleksiyali til ekanligini ko'rsatadi. O'zbek tilida ot va fe'lga qo'shimchalar yordamida egalik, ko'plik, zamon, shaxs kabi grammatik kategoriyalar qo'shiladi. Shuningdek, arab tilida ikkilik sonning mavjudligi, grammatik jins (muzakkar/muannas), majhul fe'l shakllari va vaznlarning ma'no hosil qilishdagi roli morfologik tizimni o'ziga xos qiladi. O'zbek tilida esa jins ifodalanmaydi, ikkilik yo'q, majhullik odatda sintaktik vositalar orqali ifodalanadi.

Ushbu o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, arab va o'zbek tillarida so'z yasalishi jarayonlari turlicha bo'lsa-da, har ikki til o'z morfologik tizimida mustahkam va mukammal grammatik me'yorlarga ega. Bu tizimlarning qiyosiy tahlili lingvistik tipologiya, tarjimashunoslik, va amaliy tilshunoslik sohalari uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

1. Arab tilida fe'lning shakllanishi

Arab tilidagi fe'l morfologiyasi ildiz-vazn (formulaviy) tizimga asoslanadi. Har bir fe'l 3 yoki 4 harfli ildiz asosida turli grammatik shakllarda namoyon bo'ladi.

Masalan: k-t-b ildizi → kataba (yozdi), yaktubu (yozmoqda), maktab (maktab), kitāb (kitob)

Arab tilida fe'l, zamon: hozirgi, o'tgan, kelasi

Shakl: faol (fail), majhul (maf'ul)

Shaxs: 1-, 2-, 3- shaxsga mos ravishda turli tuslanadi

Son: birlik, ikkilik, ko'plik (tasmiy, tasniya, jama')

2. O'zbek tilida fe'lning shakllanishi

O‘zbek tilida fe’lning shakllanishi asos + affiks (qo‘shimchalar) tizimiga asoslanadi:

Masalan: yaz → yozdi, yozmoqda, yozar, yozaman

Fe’l:

Zamon: o‘tgan, hozirgi-kelasi, buyruq

Shaxs: 6 grammatik shaklda (men, sen, u, biz, siz, ular)

Ko‘plik: ko‘plik qo‘shimchasi bilan ifodalanadi (yozdik, yozdilar)

3. Arab tilida otlarning yasalihi

Arab tilida otlar ham ildizdan yasaladi:

‘ilm (bilim), ‘ālim (olim), ta’līm (ta’lim), ma’lūm (ma’lum)

Arab tilida otlar jins (muzakkar/muannas), marifa/naakira (aniqlik), birlik/ikkilik/ko‘plik shakllarda bo‘ladi:

kitābun (kitob), kitābāni (2 kitob), kutubun (kitoblar)

Ko‘plik hosil qilishda tartibli (muntazam) va notartibli (shakkli) ko‘plik mavjud: muslim → muslimūn (muntazam), rajul → rijāl (notartibli)

4. O‘zbek tilida otlarning yasalihi

O‘zbek tilida otlar ildiz so‘zdan qo‘shimchalar yordamida yasaladi:

kitob → kitobxon, kitobchi, kitoblik, kitobdor

Otlar:

Jins: grammatik jins yo‘q (biologik jins mavjud)

Ko‘plik: -lar/-lAr qo‘shimchasi yordamida (bolalar, kitoblar)

Egalik: kitobim, kitobing, kitobi kabi qo‘shimchalar yordamida

5. Morfologik tizimdagi asosiy farqlar va umumiyliklar

Taqdim Arab tili O‘zbek tili

So‘z yasash Ildiz + vazn (forma) Asos + qo‘shimcha (affiks)

Jins Grammatik: muzakkar, muannas Yo‘q (biologik jins bor)

Ko‘plik Ikkilik va turli ko‘plik shakllari Faqat -lar bilan hosil qilinadi

Fe’l zamonlari Faol va majhul, zamonli O‘tgan, hozirgi-kelasi, buyruq

Shaxslar 14 fe’l shakli (har bir son va jinsda) 6 asosiy shaxs shakli

XULOSA. Arab va o‘zbek tillari morfologik tizimi jihatidan tubdan farq qiladi. Arab tili ildiz-vazn tizimi orqali murakkab, ammo tizimli so‘z yasalihi ta’minlasa, o‘zbek tili affiksatsiyaga asoslangan oddiyroq, lekin samarali tizimga ega. Fe’l va otlarning shakllanishi, grammatik kategoriyalar, son va jins ifodalanishi — bu ikki tilning morfologik tafakkuridagi farqni ochib beradi. Bunday qiyosiy tahlillar ikki tilni chuqur o‘rganishga, ularning grammatik mohiyatini tushunishga xizmat qiladi. Har ikki til o‘ziga xos grammatik yondashuvga ega ekani yaqqol namoyon bo‘ladi. Arab tilining

ildiz-vazn tizimi soʻz yasashda ichki morfologik oʻzgarishlarga tayansa, oʻzbek tilida esa tashqi affiksatsiya asosiy vosita boʻlib xizmat qiladi. Feʼl va otlarning shakllanishida arab tilida jins, ikkilik, majhullik kabi grammatik kategoriyalar muhim rol oʻynasa, oʻzbek tilida bu tushunchalar yoʻq yoki sintaktik vositalar bilan ifodalanadi. Oʻzbek tilining morfologik tizimi soddaligi bilan ajralib turadi, arab tili esa vaznlarning maʼno hosil qilishdagi roli bilan murakkab va boy tizimni tashkil qiladi. Maqolada keltirilgan misollar, grammatik tahlillar va qiyosiy yondashuv orqali ikki til oʻrtasidagi farq va umumiyliklar aniq belgilandi. Ushbu natijalar arab va oʻzbek tillarining grammatik tizimlarini chuqur oʻrganish, tarjima, til oʻqitish va lingvistik tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov, O. (2023). Oʻzbek tilida feʼl yasashining morfologik xususiyatlari. – “Zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlari” jurnali, №1, 17–25-betlar.
2. Baxtiyorova, F. (2023). Arab va oʻzbek tillarining feʼl kategoriyasini qiyosiy tahlil qilish. – “Sharq tillari va lingvistika” jurnali, №2, 40–47-betlar.
3. Yusufov, N. (2024). Oʻzbek tilida otlarning grammatik kategoriyalari. Toshkent: Ilm Ziyo.
4. Abdullayeva, M. (2023). Arab tilida ot va feʼl yasashining nazariy asoslari. – “Til va jamiyat” jurnali, №3, 29–36-betlar.
5. Karimov, J. (2024). Qiyosiy tilshunoslik: arab va oʻzbek morfologiyasining zamonaviy tahlili. – “Filologiya fanlari” jurnali, №1, 12–22-betlar.
6. Hasanova, D. (2024). Arab tilining zamonaviy grammatikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Ashurova, Z. (2023). Oʻzbek tilining grammatik strukturasi va arab tili bilan bogʻliqligi. – “Til va adabiyot” ilmiy toʻplami, №2, 55–61-betlar.
8. Sayfullayev, M. (2024). Feʼl shakllari va zamon kategoriyasi: arab va oʻzbek tillarining qiyosi. – “Oʻzbek tilshunosligi muammolari”, №1, 19–27-betlar.
9. Rasulova, T. (2025). Arab va oʻzbek tillarining grammatik tafakkuri: morfologik yondashuv. – “Qiyosiy filologiya” jurnali, №1, 33–40-betlar.
10. Ibn Salim, A. (2023). Modern Arabic Morphology: Theory and Application. Riyadh: Al-Lugha Publications.